


ISBN 978-9913-10-039-8




9 789943 100398

81  
033

Z. NISHONOVA, D. QARSHIYEVA

# EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYA





Z.Nishonova, D. Qarshiyeva. Eksperimental psixologiya. T., «Fan va texnologiya», 2007, 92 bet.

O'quv qo'llanmada eksperimental psixologiya fanining dolzarb muammolari yoritilgan. Shaxsni o'rganish metodlari, yo'llari, laboratoriya va tabiiy eksperiment sharoitida psixologik faktlarni olish, sharhlashning nazariy hamda amaliy masalalari ochib berilgan. Tadqiqotlardan olingan ma'lumotlarni tahlil qilish va taqqoslash, statistik qayta ishlash asosida ularni umumlashtirish, eksperiment natijalarining ishonchlilik darajasini aniqlash bayon etilgan.

Qo'llanma psixologlarga, pedagoglarga, bakalavriat (5140800) psixologiya ta'lim yo'nalishining talabalariga mo'ljallangan.

***Taqrizchilar:***

**A.RASULOV** — O'zMU psixologiya kafedrasi dotsenti, psixologiya fanlari nomzodi;

**L.NAZIROVA** — TDPU psixologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, psixologiya fanlari nomzodi.



ISBN 978-9943-10-039-8

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2007-y.

## I. EKSPERIMENTAL PSIXOLOGIYANING PREDMETI

### 1.1. Eksperimental psixologiyaning vazifalari

Eksperimental psixologiya fan sifatida XIX asr o'rtalarida rivojlana boshladi. Eksperimental psixologiyaning maqsadi psixologik eksperiment o'tkazishning malaka va ko'nikmalarini paydo qilish va rivojlantirishdan iborat.

**Eksperimental psixologiyaning vazifalari:**

1. Psixologiya fanida eksperiment o'tkazishning qonunlari, tartibi va tamoyillari bilan tanishtirishdan iborat.

2. Turli metodikalar yordamida shaxsning psixik jarayonlari, holatlari va psixomotor rivojlanishini o'rganishdir.

Ma'lumki, XIX asr fizika, biologiya, fiziologiya, ximiya va boshqa fanlarning rivojlanishi bilan xarakterlanadi. Fanda paydo bo'lgan eksperimental metodning keng qo'llanilishi bu fanning rivojlanishiga yordam berdi. XVIII asrning oxiri XIX asrning boshlaridayoq psixologlar o'rtasida psixik hodisalarni o'rganishda eksperimentni tatbiq qilish mumkin emasmikan, degan muammo paydo bo'ldi.

Bu muammo bo'yicha faylasuf Kant o'z fikrini bildirdi. Uning fikricha, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkin emas, chunki psixik hodisalarni o'lchash mumkin emas, ularga matematikani tatbiq qilish ham mumkin emas.

Psixik hodisalarni o'lchashning mumkinligi, binobarin, psixologiyada eksperimentning bo'lishi mumkinligi haqida nemis psixologi I. Gerbart (1776–1841) ijobiy fikr bildirgan. U «psixologiyada matematikani tatbiq qilish mumkin va zarurligi haqida» shunday degan: «Mening tadqiqotlarim amalda faqat psixologiyaning o'zi bilan cheklanib qolmasdan, balki fizikaga va umuman tabiat fanlariga ham qisman aloqadordir»!

Gerbartning fikricha, asosiy psixofizik element tasavvurdir, qolgan barcha jarayonlar – hissiyot, iroda, tasavvurlar majmuasidan